Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Quadrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	945
Yusupova Umida	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari	950
Kadirova Omadxon Sobirjonovna	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish	954
Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде	961
Камолдинова Диёра Жалолиддин кизи	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari.....	968
Fayzidinova Maxsuda Akmalovna	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar	971
N. R. Dushayeva	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish.....	975
Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari	980
Rabbimova Munisxon Mustafoyevna	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari.....	983
Suvanova Kamola Raimqul qizi	



Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash	989
Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida	993
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova	
The Influence of Digitalization on Written Communication	998
Yusupova Sitara Ashuraliyevna	
Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi va ona tili darslariga zamonaviy yondashuvlar	1002
G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna	
O'quvchilarning ijodiy ish faoliyati malakalarni shakllantirishga mos masalalarni tanlash metodlari	1005
Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi	
Mashq va topshiriqlar tizimi – fonetik ta'lim samaradorligini oshirish tizimi	1011
Ganiyeva Dildora Sagdullayevna	
Psixologik treninglarning uslubiy muammolari: nazariy va amaliy tahlil	1015
Gulchehra Utamurodova Narbayevna	
O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanish imkoniyatlari	1018
Islamova Karima Turdiyevna	
Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro xamkorlik	1023
Karimova Gulchehra	
Ta'lim boshqaruvida "yumshoq kuch" (soft skills): rahbar ayollarning psixologik va pedagogik mahorati ...	1026
Nomozova Roziya Omonovna	
Ta'lim jarayonida psixologik muhitning ahamiyati	1029
Qarshiboyeva Dildora Burliyevna	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektidan foydalanishning samaradorligi	1033
Qo'chqorov Mirzavali	
Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati	1036
Qodirova Malikaxon Kaxramonovna	
Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning sifat faoliyatini baholovchi tizim yaratish	1040
Sharipova Umeda Tolibjonovna	
Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy logopedik va multimodal ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	1045
Hasanova Gulnoz Qosimovna, Jo'rayeva Gulibonu G'ayrat qizi	
Musiqqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	1050
Azimjonova Gulxayxon Shuxratjon qizi	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	1053
Shanazarov Otabek	
Tarbiya fanida milliy-ma'naviy meros va hadislar asosida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishning ilmiy-pedagogik paradigmaları	1058
Axmedov Boburjon Vasikovich	
Pedagoglarning malakasini oshirish samaradorligini baholash mezonlari	1063
Muminova Nargiza Sabitdjanovna	
Современная детская литература: тенденции, проблемы и воспитательный потенциал	1067
Дустова Дилдора Собиржановна	
Complex Variants of Congenital Cleft Palate: Surgical Attacks	1070
Anvarova Muhtasar Anvarovna	
Метод равных расстояний при делении угла с недоступной вершиной	1074
Эсонов Мунавваржон Мукимжонович	



Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxslararo munosabatlarni art-terapiya vositalari orqali korreksiyalash	1077
Nig'matova Nodirabegim Lutfillo qizi	
Raqamli kutubxonalarda foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish	1082
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi	
Формирование духовно-нравственных ценностей будущих учителей начальных классов	1085
Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.	
Oliy ta'limda talabalar ommaviy sportini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1088
Ummatov Nozim Raimjonovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida shakllantirish yo'llari	1092
Altibayeva Gulbaxor Majitovna	
Virtual va kengaytirilgan reallik vositalari yordamida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish	1098
Raxmatova Salima Togaymuradovna	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATINI INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Altibayeva Gulbaxor Majitovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0006-0289-9576

Annotatsiya: Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlari, ularning usul va metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur jarayonning ijtimoiy muammo sifatidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: rejalashtirish, tashkil etish, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar.

Abstract: The article analyzes the methods and approaches to developing the intellectual abilities of preschool children through innovative educational technologies. It also highlights the significance of this process as a social issue.

Key words: planning, organization, activity, opportunity, specific categories.

Аннотация: В статье рассматриваются методы и способы формирования интеллектуальных способностей детей дошкольного возраста с использованием инновационных образовательных технологий. Также обоснована значимость данного процесса как социальной проблемы.

Ключевые слова: планирование, организация, деятельность, возможность, частные категории.

KIRISH

San'at markazida bolalarning tasviriy faoliyati tashkil etiladi. Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Tasviriy faoliyat bolalar uchun qiziqarli faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda inson hayotidagi barcha voqea va hodisalarni ifodalash, o'zaro muloqotga kirishish va ijobiy munosabatlarning shakllanishi imkonini beradi. Bola shaxsining rivojlanishida tasviriy faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Bolaning intellektual qobiliyati, ma'naviy dunyoqarashi va hissiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Til va nutq" markazida narsa-buyum nomi bilan rasmlar, turli vositalar orqali tanishsa, "Qurilish va konstruksiyalash" markazida uning tuzilishi, tashqi belgilarini o'rganadi. "Ilm-fan va tabiat" markazida ushbu buyumlar, uning ahamiyati va zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'zaro muloqot jarayonida anglaydi, kuzatuv, tahliliy suhbat, audio va videovositalar orqali tushunib yetadi. "Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish" markazida bolalar turli rollarni ijro etish orqali aqliy faoliyati va intellektual qobiliyati rivojlanadi. Mazkur yondashuv guruhdagi bolalarni bir vaqtning o'zida turli faoliyat bilan band qilish, faoliyat mazmunini o'rganilayotgan mavzuga yo'naltirish jarayonlari integratsiyalangan mashg'ulotni tashkil qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. Xususan, Lev Vygotskiy ta'lim va rivojlanishning o'zaro bog'liqligini asoslab, bolaning yaqin rivojlanish zonasi orqali intellektual salohiyatini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Jean Piaget bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini izohlab, intellektual rivojlantirish faol bilish jarayoni orqali shakllanishini asoslaydi. Ushbu yondashuvlar maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy asosini tashkil etadi.



O'zbek olimlari, jumladan, Djuraeva B. R. va boshqalar 2017-yilda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning muhimligini ko'rsatib, pedagogik tizimni takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Shu bilan birga, Yo'ldoshev J. G'. va Usmonova S. A. 2004-yilda pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quv faoliyatini samarali tashkil etish mumkinligini ta'kidlaydi.

Shodmonova Sh. 2008-yilda maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv muhim o'rin tutishini qayd etadi.

Mazkur tadqiqotlar innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bolalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va intellektual qobiliyatini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni tizimli yig'ish va tahlil qilishga yo'naltirildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa va test metodlaridan foydalanildi. Kuzatish orqali bolalarning mashg'ulot jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarga munosabati o'rganildi. Suhbat va anketa yordamida tarbiyachilarning innovatsion texnologiyalarni qo'llash tajribasi hamda bolalarning qiziqish darajasi aniqlandi. Test sinovlari orqali bolalarning intellektual rivojlanish ko'rsatkichlari baholandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tavsifiy tahlil asosida qayta ishlanib, dastlabki va yakuniy natijalar solishtirildi. Shuningdek, natijalarni umumlashtirishda statistik tahlil elementlaridan foydalanilib, ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi aniqlashtirildi. Natijalar asosida innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi baholanib, ularning bolalar intellektual rivojlanishiga ta'siri aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bunda tarbiyachidan faollik, intellektuallik va moslashuvchanlik bilan yondashish talab etiladi. Bir markazdagi bolalarning qo'lga kiritgan yutug'i, ikkinchi markazdagi faoliyat uchun imkoniyat yaratadi. Ya'ni, bola oldin o'zlashtirgan ma'lumot zamirida keyingi qadamlarni amalga oshiradi. Bolalar faoliyatini bu tarzda tashkil etish konsentrik yondashuv hisoblanadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, bolalar asta-sekin tarbiyachi ko'rsatgan usullardangina foydalanadi. Shuning uchun bolaning ilk yoshidan unga harakatlarni amaliy namoyish qilish lozim. Ta'lim jarayonida bolalarning ishi tahlil qilinadi va to'ldiriladi yoki bola uchun qiziqarli bo'lgan harakat namuna sifatida ko'rsatiladi, taqqoslanadi (rasmlar, qurish-yasash, loy va plastilin bilan), bolalarga namuna alohida bir stolda joylanadi.

Tajribaning ko'rsatishicha, bolalar juda chuqur o'ylaydi, qiziqish bilan o'z ishini namunaga taqqoslaydi, hech ham xato qilmaydi, hatto mayda elementlargacha fahmlaydi. Ushbu jarayonlar bolalarda mustaqil, samarali refleksiv faoliyatning rivojlanishiga amaliy yordam beradi. Pedagogik jarayonlarni amalga oshirishda tarbiyachilar bolalarga qulay sharoit va o'z kuchiga ishonch hissini ta'minlashi lozim. Tarbiyachi bolalarning o'zlashtirish darajasi, ularning intellektual pozitsiyasini rivojlantiradi va mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratadi. Tarbiyachi ta'lim jarayonida o'zaro ta'sir (hamkorlik) va insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogik munosabatlarni amalga oshiradi. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lgan muloqotni quyidagi shakllarda uyushtiradi:

- pedagogik jarayonni loyihalash;
- tarbiyalanuvchilar guruhi bilan muloqotga kirishish;
- rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqot jarayonini boshqarishni tashkil etish;
- faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muloqot tizimining andozasini yaratish;
- tarbiyalanuvchilar bilan bevosita muloqotni tashkil etish kabilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular sust-ijobiy, barqaror hamda beqaror bo'ladi. Ta'limiy omillarni yaratishga mo'ljallangan innovatsion texnologiyalar tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarga muloqot asosida ta'sir etish yo'llarini ham o'z ichiga oladi. Ayrim metodlar yoki muloqot turlari bolalarning intellektual qobiliyatini shakllantirishda alohida samaradorlikka ega. Ular ishonitirish, isbotlangan natijalarga asoslanish, bevosita va bilvosita ta'sir, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zaro ta'sir metodlaridir.

Innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tasavvur etish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim jarayoni ta'lim texnologiyasining asosi bo'lib, ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, vositalari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarni o'zida mujassamlashtirgan tizimdir. Ular o'zaro aloqadorlikda maktabgacha ta'lim jarayonining mohiyatini belgilaydi.



Maktabgacha ta'lim jarayoni quyidagilarga muvofiq tarzda tashkil etiladi:

1. Bolalardagi intellektual qobiliyat, kognitivlik, kommunikativlik, ijtimoiylashish va rivojlanish kabi ehtiyojlarning vujudga kelishi;
2. Kognitivlikka bo'lgan qiziqishning uyg'onishi;
3. Tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan mashg'ulotlar mazmunini belgilash;
4. Innovatsion texnologiyalar asosida intellektual qobiliyatni shakllantirish omillarining mavjudligi kabilar.

Amaliyotda oqlangan har qanday innovatsion texnologiya tarbiyalanuvchi shaxsini faollashtirishga va intellektualligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Bunda tarbiyalanuvchi ta'lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta'lim-tarbiya jarayonida erkinlikka intilishi, mustaqilligi, shaxsiy fikrlarning mutlaq o'ziga xosligi, o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyojining mavjudligi kabilarni hisobga olgan holda, unga uning o'ziga xosligini ta'kidlash, o'z-o'zini rivojlantirish imkonini berish va buning uchun qulay pedagogik sharoit yaratish lozim. Chunki har qanday tarbiyalanuvchi o'ziga xosligini namoyon qilishga intiladi.

Bolalarning intellektual qobiliyatini shakllantirishga insonlar xatti-harakati va kattalar mehnati haqida tushunchalar berish orqali erishiladi. "Mening oilam", "Mening sevimli bog'cham", "Men sevgan yurt", "Mening ona Vatanim", "Bizning milliy armiya", "Vatanim bayrog'i" mavzulari bolalarni intellektual-hissiy rivojlantiradi va shu orqali bolalarga aqliy tarbiya beriladi. Atrof olam bilan tanishtirish orqali bolalarga aqliy tarbiya ham beriladi. Aqliy tarbiya bilish faoliyati bilan birga zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi.

Natijada, o'quv-tarbiyaviy faoliyat bolalarda intellektual tasavvurlarni shakllantiradi. Ularda insonlar, atrof olam (o'simliklar va hayvonlar), predmetlarga (insonning turmush tarzi, hayvon va o'simliklarning hamda suv, havo va tuproqning zarurligi) qiziqishni rivojlantiradi; uy-ro'zg'or buyumlari (kiyimlar, poyabzal, idish-tovoq, mebel) ularning belgi va vazifalari bilan tanishtiradi; o'zi haqida ilk tasavvurlarni shakllantiradi; bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rniga ega bo'lishi "Men va tengdoshim", "Mening o'rtog'im", "Mening obod mahallam", oila a'zolari (ona, ota, buvi va buva, aka-uka, opa-singillar) bilan munosabatlarga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsiga faoliyatli yondashuv texnologik tizimning konsepsiyasini ifodalab, bunda tarbiyalanuvchi shaxsining erkinlikka intilishi, bir butunligi, mustaqil bilim olishi, o'zligini namoyon etishi va faolligi ta'minlanadi.

Demak, tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik imkoniyatlarni inobatga olish zarur sanaladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan o'quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar, o'zaro mashg'ulot kuzatishlar, turli kechalar, ilmiy-amaliy uchrashuvlar, masofadan o'qitish, shuningdek, turli to'garaklar, fasllar bilan bog'liq tadbirlar, turli mavzularda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy kechalar, davra suhbatlari hamda soha vakillari bilan uchrashuvlar uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash;
2. Tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etish;
3. Turli mavzular bo'yicha tashkil etiladigan seminar-trening jarayonlarida tarbiyachilar innovatsion yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirishga kreativ yondashishi, o'z ustida muntazam ishlashi, mustaqil ta'lim va ma'lumotlar olish ehtiyojlarini boyitib borishi;
4. O'rganiladigan mavzularning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi va izchilligi hamda ketma-ketligi asosida rejalashtirish;
5. Tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratish;
6. Tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish.

Ushbu jarayonda tarbiyalanuvchi shaxsining intellektual qobiliyati jadal rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi ta'minlanadi.

Agar tarbiyalanuvchi mashg'ulotlar mazmun-mohiyatini anglay olmasa, kerakli ma'lumotga ega bo'lmasa, yetarlicha rivojlanmay qoladi. Shunday qilib, mashg'ulotlar mazmun-mohiyati tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlantirishining asosiy birligi hisoblanadi. Shaxsning intellektual qobiliyatlarini o'rganishga G. Eyzenk, S. K. Annamuratova, L. S. Vygotskiy, R. Sternberg va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, V. N. Drujinin shaxsning intellektual qobiliyatlari muammosini operativ yondashuv doirasida, ya'ni intellektning G-omilli modellarida ko'rib chiqadi.

Fransuz olimi J. Piaje intellekt va aqliy faoliyat tushunchalarini ajratib, intellektni "yangi sharoitlarga aqliy moslashish" deb talqin qilishni taklif qildi.



Tadqiqotchilar o'z g'oyasini amaliyotda sinab ko'rish maqsadida shogirdi T. Simon bilan hamkorlikda bolalar intellektining rivojlanish darajasini o'lchash uchun psixologik aqliy testlar ishlab chiqdilar. Ushbu konsepsiyaga asoslangan holda Bine shunday masalalarni tanladiki, bunda bolaning ilgari bilimlari va ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatlari sezilarli darajada kamaytirildi.

A. Binening maqtovg'a sazovor jihatlaridan biri shuki, u har bir yosh davri uchun shunday testlar seriyasini tuzish kerakki, toki uning yechilishi faqat shu davrga taalluqli bo'lsin, deya yosh davrlari xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tish zarurati haqida fikrlar bildirdi.

F. Degan g'oyadan kelib chiqqan holda, u test topshiriqlarini nazariy asoslash shart emas deb hisobladi, natijada ayrim shubhalar tug'ilishiga imkon yaratadi. Asrimizning boshlarida esa intellektni tadqiq qilish yuzasidan Bine va Simon ta'limotlari jahon olimlari orasida keng quloq yoydi, natijada bir qancha mamlakatlarda ularning tarafdorlari ham vujudga kela boshladi.

Bine va Simonlardan keyin bir qator boshqacha shaklga ega bo'lgan testlar va ularning muayyan tizimlarining ko'p sonli modifikatsiyalari yuzaga keldi.

Ular orasida amerikalik olim L. Termin tomonidan ishlab chiqilgan modifikatsiya alohida ahamiyatga molikligi bilan ajralib turar edi. U o'z tadqiqotlarida Platonning aqliy qobiliyatlarning genetik jihatdan shartlanganligi to'g'risidagi nazariyasiga ko'proq murojaat qiladi.

V. D. Shadrikov intellektga ma'naviyat bilan ma'naviy qobiliyatlarning birgalikdagi komponenti tarzida qaraydi. Bunga muvofiq, bu funksiya o'rab turgan voqelikni oddiy baholash emas, balki insonning ma'naviy jihatlarini bilan solishtirishi va shaxsning ichki o'zgarishlarini belgilovchi sotsial muhit bilan o'zaro ta'sirlashuvini muvofiqlashtiradi.

Gilford o'zining kubik modeli yordamida tafakkur o'lchamlaridan operatsiyalar, bilish funksiyasi, xotira, divergent va konvergent tafakkur, baholash, mazmun: obrazli, belgili, semantik, xulqiy, natija: elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim, sistema, o'zgartirish, islohot: qo'llash, tatbiq qilishdan kelib chiqqan holda 120 ta o'ziga xos qobiliyat turini ajratib berishga harakat qiladi.

Bugungi kunda MTT tarbiyalanuvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ham mavjud bo'lib, ular orasida muammoli o'qitish, intellektual faollikni ifodalovchi turli rolli o'yinlar, treninglar, bahs-munozaralarni tashkil qilish va hokazolar bor. Intellektual qobiliyatni shakllantirishda, ayniqsa, treninglarning o'рни beqiyosdir. Sababi, trening o'tkazish jarayonida tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyati o'sadi, nutqi ravon bo'ladi, tafakkuri rivojlanadi, muloqotga tez kirisha oladigan bo'ladi. Shu sababli treninglarni verbal va noverbal ko'rinishda tashkil etish mumkin.

Treningni noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hokazolar) ko'rinishda tashkil qilgan tarbiyachi gapirayotganida har bir qatnashuvchini ko'z ostida tutishi, hammaga bir xil e'tibor berishi va guruhdagi ba'zi tarbiyalanuvchilarga xayrixoh bo'lib qolmasligi lozim. Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qilishi (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qochishi, shuningdek, guruhga o'zi ko'rinmaydigan joydan turib gapirmasligi) kerak bo'ladi. Qatnashuvchilarning bosh qimirlatishi, tabassumi va xatti-harakatlari nimanidir aytmog'chi ekanligiga, xohishi borligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Trening verbal ko'rinishda tashkil etilsa, tarbiyachi savollarni shunday tuzishi kerakki, asosan qatnashuvchilar gapirsin. Bunda tarbiyachiga ochiq savollar yordam beradi: "Siz bu haqda nima deysiz?", "Nimaga?", "Qanday...?", "Agar..." va hokazolar.

Agar qatnashuvchi "Ha", "yo'q" deb javob bersa, "Nimaga shunday gapiryapsiz?" deb so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, boshqa qatnashuvchilardan ham so'rash kerak: tasdiqlangan fikrlarga qo'shiladimi?

Tarbiyachi trening o'tkazish jarayonida o'z ovozinig ohangiga e'tibor berishi, sekin va aniq gapirishi kerak bo'ladi. Qatnashuvchilarni ko'proq gapirishga undash kerak. Tarbiyachi o'zining va qatnashuvchilarning so'zga chiqish vaqtini hisoblashi lozim bo'ladi. Hamma savollarga faqat o'zi javob bermasligi, qatnashuvchilar bir-birlarining savollariga javob berishi mumkinligini unutmasligi lozim. Bahs natijalarini xulosa qilishda har bir mashg'ulot qatnashchisining muhokama qilinayotgan muammoning mohiyatini to'g'ri tushunayotganini aniqlab, keyin umumiy xulosa chiqarish kerak. Agar tarbiyachining shaxsiy tajribasi mazkur bahsga mos kelsa, qatnashuvchilar fikrlarini mustahkamlab, "Bu menga o'tgan yilgi voqeani eslatadi", deyishi mumkin.

Yaxshi trening o'tkazishning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud.

Izyumenka (bolalar bilan ishlashning o'ziga xos ajoyib tomoni). Qatnashuvchilarning treningga qiziqishini uyg'otish uchun qisqa bahs boshlang, savollar bering, provokatsion ta'kidlarni ilgari suring yoki qandaydir faoliyat turini faraz qiling. Trening qatnashchilarining avvalgi bilimlari va ularning qat'iy tajribalarini bog'lashga harakat qiling. Trening nima uchun ahamiyatli ekanligi sabablarini tushuntiring.

Tarbiyalanuvchilar uchun ta'kidlash. Tarbiyalanuvchilarga ulardan nima kutilayotganini tushuntiring. Tarbiyalanuvchilar uchun natijalar quyidagi savolga javob berishi kerak: "Bu treningdan keyin qatnashuvchilar nimalarni bilishini va qilishini xohlayman?"



Trenerning hissasi. Trening uchun kerakli boshlang'ich ma'lumot va yetarli bilimlar (matn, ma'ruza, hujjatlar, o'qish) hamda biror faoliyat turini o'tkazish uchun mashg'ulot mazmunini namoyish qiling.

Interfaol. Bu treningning yuragi. Interfaol uslubiyotda foydalaniladigan ish tartibining mazmuni va mohiyati muhimdir. Interfaol uslub bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va intellektual faoliyatni baholashdir. Umuman, treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqing. Ayniqsa, guruhda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib boring. Tushuntirishlarni tekshiring va qo'shimcha tushuntirishlar bering.

Treningni to'liq yakunlashga vaqt yetishi uchun uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qiling. Treningni o'tkazish savollari bu yerda muhim ahamiyatga ega (guruhning o'lchovi, guruhga shaxsiy yordam, tushunishini tekshirish). Aynan shu narsalar treningning o'tishiga yordam beradi. Trener mashqlarni bajarish jarayonida qatnashuvchilarning topshiriqlarni to'g'ri bajarishini kuzatib boradi.

Debrifing (xulosa) va baholash. Qatnashuvchilar o'zlari yodlagan, o'rgangan yo'nalishlari bo'yicha xulosa qiladilar, olingan ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, bolalar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar. Bu treningni baholash qismi sanaladi. "Qatnashuvchilar nimani o'rgandilar?" Trening davomida o'rgan-ganlari yoki ko'rsatganlari natijalar bilan mos kelishini tekshiring.

"Muammoli bola" treningini o'tkazish texnologiyasi.

Treningning maqsadi:

- qatnashuvchilarga muammoli bolalar bilan o'zaro til topishishning hamda ular bilan bo'ladigan turli vaziyat-larda to'g'ri yechimni topishlariga yordamlashish;
- muammoning mohiyatini aniqlashda malakani shakllantirish;
- tarbiyaning ba'zi usullari bilan tanishtirish, bolalar bilan ishlashda ushbu uslublarni to'g'ri tanlashni o'rgatish;
- muammoli bolalarning paydo bo'lish sabablari va yetakchi tarbiyachilarning ushbu muammoni yechishdagi xatti-harakatlarini to'g'ri aniqlashni o'rgatish.

Demak, yangi texnologiyalar hozirgi davr ta'lim tizimini yangi sifat ko'rsatkichlariga olib chiqish mumkin bo'lgan metodlar tizimiga aylanadi. Ayniqsa, MTT tarbiyalanuvchilariga bilim berish, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda, kasbiy sifat va salohiyatni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish va turli o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

N. E. Vasyukova va O. I. Chexonina fikricha, "kombinatsion mashg'ulot bir necha faoliyat turi yoki didaktik vazifalarning birlashtirish asosiga quriladi, ammo mashg'ulotlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlanmaydi, masalan, loy ishidan keyin harakatli o'yin o'tkaziladi. Mujassam mashg'ulotda turli faoliyat va ular o'rtasida o'xshash aloqalar bajariladi (masalan: yong'in xavfsizligi qoidalari mavzusida suhbat o'tkazilsa, rasm orqali ifodalanadi yoki o'yin o'tkaziladi). Bunda bitta faoliyat turi ustunlik qiladi, ikkinchisi uni to'ldiradi, hissiy muhit yaratiladi. Integratsion mashg'ulot tarbiyalanuvchilarga atrof olam haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi, ular yashayotgan joyidagi hodisalar va narsa-buyumlarning o'zaro bog'liqligini anglaydi. Integratsion mashg'ulot tarbiyalanuvchilarda ijodiy faollikni rivojlantiradi. Bu esa tarbiyachidan "Ilk qadam" dasturidan to'liq foydalanish, turli sohalaridan ma'lumotlar olish, madaniyat, san'at, atrof-muhit va hayotiy voqea-hodisalardan namunalar keltirishni taqozo qiladi".

Maktabgacha ta'limda integratsion jarayon uch ko'rinishda amalga oshiriladi:

- ichki mashg'ulotlararo;
- tizimlararo;
- yuqori va past darajadagi integratsiya.

Integratsion mashg'ulotlarning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- bolalarning bilim va ko'nikmalarini yaxlitlikda shakllantirish;
- bolalarning kommunikativ ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;
- bolalardagi psixologik zo'riqish, qo'rquv va ishonchsizlikni bartaraf etish.

Integratsion mashg'ulotlarning muhim jihati shuki, tarbiyalanuvchilarda ta'lim olishga bo'lgan motivatsiya oshadi, bilishga qiziqish shakllanadi, butun olamga yaxlit va voqea-hodisalarga har tomonlama qarashga intilish paydo bo'ladi. O'quv-tarbiya jarayonini kuchaytirish va samarali tashkil etishga asos bo'ladi, eng muhimi, bolalardagi zo'riqish va toliqishni bartaraf etadi.



Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati an'anaviy ta'lim shaklidan tubdan farq qilib, tarbiyalanuvchilarning aqliy qobiliyati, intellektual salohiyatini, mustaqilligini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda qo'llash, biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish emas, balki samarali tashkil etish maqsadida o'quvchilarni fan asosidagi bilimlarni chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, ijodkorlik qobiliyatini o'stirishga imkon yaratadi va talabalarning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bunday pedagogik holat yoki munosabat mazkur jarayonni pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishni va ularni keng qo'llashni taqozo etadi.

MTTda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limning yangi usullari va shakllarini amaliyotga qo'llash va shu orqali intellektual qobiliyati shakllangan, ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, ijodiy va mustaqil fikr yuritadigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga mustaqillik va milliy istiqloq g'oyasini singdirish, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Mazkur vazifalarning bajarilishi va muvaffaqiyatli hal etilishi, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan keng qo'llashda foydalanishni taqozo etmoqda.

Yangi munosabatlarda o'ziga xos jihatlari an'anaviy ta'lim shaklidan tubdan farq qilib, tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyati, mustaqilligi, bilimlarni chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, imkoniyatlarni chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bunday pedagogik holat yoki munosabat mazkur jarayonni innovatsion texnologiyalar orqali tashkil etishni va ulardan keng qo'llashni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Pedagogik texnologiya (PT) shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, tarbiyachi faoliyati yangilanadi, tarbiyalanuvchining intellektual qobiliyati, uning tafakkuri, dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi shakllanib boradi.

Barron va Volshava tajribalari shu narsalarni ko'rsatadiki, murakkab chizmalar va rasmlar yaratilishi shaxsning ijobiy xususiyatlari bilan uning intellektual imkoniyatlari o'zaro uzviy bog'liqdir. Nuqtaning tezligi, sur'ati, hukmning beixtiyorligi va mustaqilligi, qiziqishlarining kengligi va oqilligi kabilar shular jumlasidandir.

Olimlardan J. Kettell, D. Golland, M. Makkennon, S. Madli kabilarning intellektni o'lchab beruvchi, mezon vazifasini o'tovchi testlarini boshqarishda sinalluvchilarning shaxsiy fikri hamda mulohazalarini o'rganish hech qachon foydadan holi emasdir.

Koliforniya ta'lim muassasasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yetarlicha ijodkor bo'lgan insonlar sezilarli darajada intellektual ustunlikka ega bo'lishlari shart emas, chunki ularning intellektual darajasi o'z-o'zidan yetarlicha yuqoridir. Ijodkor shaxsning ritmik xususiyatlari mohiyati shundaki, u bolaning rost-go'yilgi, tasavvur qilish ko'rsatkichi, ajablanishi, taajjublanishi bilan yetuk amaliy turmush tajribasiga ega bo'lgan kishining bilish mahoratini o'zida birlashtira olishga qodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008-yil. – 34 bet.
2. Djuraeva B. R., Umarova X. A., Tojiboeva H. M., Nazirova G. M. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi": monografiya. – Toshkent: Real Print, 2017-yil. – 160 bet.
3. Yo'ldoshev J. G., Usmonova S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: RTM, 2004-yil. – 104 bet.
4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). – T.: "Fan va texnologiya", 2008-yil. – 160 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.